

KARL YUNG NAZARIYASIDA ARXETIP TUSHUNCHASI

Nazarova Lobar Maxmataminovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19224451>

Annotatsiya. Ushbu maqola Karl Gustav Jungning analitik psixologiyasidagi markaziy tushuncha - arxetip konsepsiyasining nazariy asoslari va struktural xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada arxetip tushunchasining falsafiy genezisi (Platon, Avgustin) va uning kollektiv ongsizlik bilan o'zaro aloqasi yoritilgan. Shuningdek, asosiy arxetiplarning tavsifi va ularning psixikadagi funksional ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: arxetip, kollektiv ongsizlik, Karl Gustav Jung, analitik psixologiya, instinkt, arxetipik obraz.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу теоретических основ и структурных характеристик концепции архетипа, являющейся центральной категорией аналитической психологии Карл Густав Юнг. В статье рассматривается философская генезис понятия архетипа (Платон, Августин) и его связь с коллективным бессознательным. Также анализируются основные архетипы и их функциональное значение в психике на основе научных источников.

Ключевые слова: архетип, коллективное бессознательное, Карл Густав Юнг, аналитическая психология, инстинкт, архетипический образ.

Abstract. This article is devoted to analyzing the theoretical foundations and structural characteristics of the archetype concept, a central category in Karl Gustav Jung's analytical psychology. The article discusses the philosophical genesis of the archetype (Plato, Augustine) and its relation to the collective unconscious. Additionally, the main archetypes and their functional significance in the psyche are analyzed based on scholarly sources.

Keywords: archetype, collective unconscious, Carl Gustav Jung, analytical psychology, instinct, archetypal image.

“Arxetip” so’zi yunon tilidan olingan bo’lib, arche - ibtido, types - obraz ma’nolarini anglatadi.¹ Bu tushuncha dastlab Platon, keyin Avreliy Avgustin tomonidan ishlatilgan. 1919-yilda Karl Gustav Jung “Instinkt va ongsizlik” ma’ruzasida ushbu termini ilmiy muomalaga kiritgan².

Arxetip konsepsiyasining ildizlari Platonning eidos ta’limotiga borib taqaladi. “Arxetip - bu yangi atama emas, - deydi Yung, - chunki u Avgustindan oldin ishlatilgan va klassik ‘g’oyalar’ tushunchasi bilan sinonimga ega edi”.³ Yung arxetiplarni metafizik substansiyalar sifatida emas, balki psixik strukturalarning aprior shakllari sifatida talqin etadi.

Yung psixikasining topografik modelida shaxsiy ongsizlikdan tashqari, yanada chuqurroq qatlam - kollektiv ongsizlik mavjud. Bu qatlam insoniyatning butun tarixiy tajribasini o’z ichiga oladi. “Kollektiv ongsizlik instinktlar va arxetiplardan iborat”⁴. Instinktlar biologik harakatlantiruvchi kuchlar bo’lsa, arxetiplar ana shu instinktlarning psixik aksidir.

Yung nazariyasidagi muhim farq - arxetip bilan arxetipik obraz o’rtasidagi chegara. “Arxetip obraz bilan aralashtirilmasligi kerak”⁵.

¹ N. Yanovskiy. Yangi so’zlotolkovatel. Sankt-Peterburg, 1803. – 450 s.

² Carl Gustav Jung. Instinct and the Unconscious. The Collected Works of C.G.

³ Jung, Vol. 8. Princeton: Princeton University Press, 1969. – P. 129–138.

⁴ Nəzərova, A. (2010). Fəlsəfə terminlərinin izahlı lüğəti. Bakı: Elm və Təhsil, 280 s.

⁵ O’sha manba

Arxetip - ongsizlikning bevosita kuzatilmaydigan strukturasi; arxetipik obraz esa uning tushlarda, mifologiyada va san'atda namoyon bo'lishidir.

Yung kristallanish metaforasidan foydalanadi: "Kristall panjarasi stereometrik tuzilishni belgilaydi. O'lchamlarning cheksizligi tufayli shakllarning xilma-xilligi ham son-sanoqsiz. Buni arxetipga ham tatbiq etish mumkin".⁶

Yung bir qator asosiy arxetiplarni tavsiflagan: Persona (niqob), Soya (Shadow), Anima va Animus, Donishmand qari, Buyuk Ona, O'zlik (Self). "Donishmand qari arxetipining mohiyati uning keksalik tajribasi asosida shakllangan".⁷

Arxetiplarning universalligi turli madaniyatlardagi obrazlarning o'xshashligida namoyon bo'ladi. "Yung ta'kidlashicha, turli madaniyatlarga xos ramzlar o'rtasida ko'pincha hayratlanarli o'xshashlik mavjud, chunki ular butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan arxetiplarga asoslanadi".⁸

Xulosa o'rnida, 'Arxetip - kollektiv ongsizlikning instinktlar bilan bog'liq bo'lgan, inson xatti-harakatlari va tafakkurining aprior shakllarini belgilaydigan struktural elementdir. Arxetip bevosita kuzatilmaydi; u faqat arxetipik obrazlar orqali bilinadi. Ushbu ta'limot psixologiya, madaniyatshunoslik va san'atshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. N. Yanovskiy. Yangi so'zlotolkovatel. Sankt-Peterburg, 1803. – 450 s.
2. Carl Gustav Jung. Instinct and the Unconscious. The Collected Works of C.G. Jung, Vol. 8. Princeton: Princeton University Press, 1969. – P. 129–138.
3. Karl Gustav Jung. Ruh va afsona. Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 320 b.
4. Nəzərova, A. (2010). Fəlsəfə terminlərinin izahlı lüğəti. Bakı: Elm və Təhsil, 280 s.
5. Quliyev, H. (2011). Donishmand qari arxetipining darvish paradigmasi. Motif Akademi Xalqbilimi Jurnalı (Ozarbayjon Maxsus Son–II), 187–193-b.
6. Samuels, A., Shorter, B., Plaut, F. (1986). A Critical Dictionary of Jungian Analysis. London: Routledge & Kegan Paul, 320 p.

⁶ Jung, Vol. 8. Princeton: Princeton University Press, 1969. – P. 129–138.

⁷ Nəzərova, A. (2010). Fəlsəfə terminlərinin izahlı lüğəti. Bakı: Elm və Təhsil, 280 s.

⁸ Quliyev, H. (2011). Donishmand qari arxetipining darvish paradigmasi. Motif Akademi Xalqbilimi Jurnalı (Ozarbayjon Maxsus Son–II), 187–193-b.